

QOVUNNING XO‘JALIK-BIOLOGIK AHAMIYATI

Ataxonova Maftuna San’at qizi

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada respublikamiz hududlarida ko‘p ekiladigan poliz ekinlaridan biri – qovun haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qovun issiqsevar, yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, qurg‘oqchilikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda tezpishar, o‘rtapishar hamda kechpishar qovun navlaridan 100 ga yaqini ekilib, yetishtirilmogda.

Kalit so‘zlar: qovun, nav, quritish, qovun qoqi, qand miqdori, ertapishar, o‘sv davri.

ANNOTATION

The article contains information about melon, one of the popular crops grown in the regions of our republic. Melon is a heat-loving, light-loving plant, resistant to drought and soil salinity. Currently, about 100 varieties of early, medium and late ripening melons are planted and grown in Uzbekistan.

Keywords: melon, variety, drying, melon rind, sugar content, early, growth period.

АННОТАЦИЯ

В статье содержится информация о дыне, одной из популярных культур, выращиваемых в регионах нашей республики. Дыня – теплолюбивое, светолюбивое растение, устойчивое к засухе и засолению почвы. В настоящее время в Узбекистане высаживают и выращивают около 100 сортов бахчевых культур раннего, среднего и позднего сроков созревания.

Ключевые слова: дыня, сорт, сушка, кожура дыни, сахаристость, ранний, вегетационный период.

Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish va bu sohadagi ta‘minotni tubdan yaxshilab, jahon andozalariga tenglashtirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida islohotlarni tubdan o‘zgartirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va ularni o‘z vaqtida qayta ishlash maqsadida bir qator qonunlar va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida: *qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish* masalasi ham o‘z ifodasini topib kelmoqda.

Respublikamizda yetishtirilgan umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollar bo‘lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinmoqda. So‘ngi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi.

2022 yili O‘zbekistonda barcha toifa xo‘jaliklarida 63 ming gektar maydonga qovun ekilgan bo‘lib, shundan 51,5 ming gektar fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu ekilgan maydonlardan jami 1,3 mln tonna qovun yetishtildi.

Qovun – O‘zbekistonning deyarli hamma viloyat va tumanlarida ekiladi. Ammo shu tumanlar tuproq-iqlim, suv va boshqa sharoitlari jihatdan bir-biridan farq qilishi sababli o‘ziga xos navlarga va yetishtirish usullariga ega. O‘zbekistonda va Markaziy Osiyo davlatlarida asosan O‘rta Osiyo va Kichik Osiyo kenja turiga mansub qovunlar ekiladi. O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovun navlari: Ko‘kcha, Handalak, Oqurug‘, Asati, Bo‘rikalla, Ko‘ktinna, Cho‘gari, Qizilurug‘, Obi novvot, Shakarpalak, Zamcha, Rohat, Suyunchi-2, Oltin vodiy, Lazzatli, Sariq handalak, Oltintepa, Kichkintoy, Gurovak, To‘yona, Gurlan, Amudaryo, Gulobi Xorazmiy, Zar gulobi, Saxovat,

Umrboqiy, Beshak, Davlatboy, Toshloqi, Dahbedi, Qo'ybosh, Shirin po'choq, Oqpar, Sariq po'choq va boshqalar.

O'rta Osiyo qovunlari quyidagi xillarga bo'linadi:

Handalaklar – ertapishar (55-70) kun, mevalari mayda yapaloq shaklda. Mevasidan qand miqdori 6-8%, mahalliy iste'mol uchun mo'ljallangan.

Yozgi eti yumshoq qovunlar – o'suv davri 75-90 kun, mevalari o'rtacha yiriklikda, yumshoq yoki ovalsimon shaklda bo'ladi. Qand miqdori 8-12%. Uzoq masofalarga tashishga chidamsiz hisoblanadi.

Yozgi eti qattiq qovunlar – o'suv davri 90-110 kun. Mevalari cho'zinchoq shaklda, qand miqdori 8-18% gacha bo'ladi. 2 oygacha saqlanadi, tashishga chidamli.

Kuzgi qovunlar – o'suv davri 110-120 kun. Mevalari o'rtacha va yirik, tuxumsimon shaklda, qand miqdori 9-11%, saqlanishi yaxshi va uzoq masofalarga tashishga chidamli hisoblanadi.

Qovun maysalashdan 30-60 kun keyin gullay boshlaydi. Meva tugish – meva pishish davri qovunda 20-70 kun davom etadi. O'simliklarning o'suv davri uzunligi, ya'ni maysa paydo bo'lganidan to meva pishgunga qadar bo'lgan davr qovunda 55-120 kun bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hududi ekinzorlarida 160 dan ortiq qovun navlari uchraydi. Lekin ularning ko'pchiligi kichik maydonlarga ekiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, respublikamizda 33 ta nav ekiladi. Shulardan faqat mahalliy Gurbek navi Kichik Osiyo kenja turiga, qolganlari esa O'rta Osiyo kenja turiga mansubdir.

Qovun urug'i tarkibida 31-35% moy moddasi mavjud, shuning uchun undan moy olish mumkin. Qovun moyi tez quriydigan bo'lib, oliy nav bo'yoqlar tayyorlanadi. Mamlakatimizda har yili 10-13 ming tonna qovun urug'i qayta ishlanadi. Urug'chilik ishlarining chiqindilaridan meva sharbatlari, qoqi, spirt va boshqa mahsulotlar olish uchun foydalaniladi. Qovun po'chog'i esa chorva mollari uchun oziq hisoblanadi.

Qovun qurg'ochilikka chidamliligi, tuproqdan namni o'zlashtirishi yaxshi ekanligi hamda tuproqda namlik kam bo'lgan paytlarda tanasidagi suvni bug'latishni kamaytira olishi bilan izohlanadi. Ildizi – o'q ildiz, palagi ingichka bo'lib o'sadi. Juda ko'plab yon shoxlar chiqaradi. Barglari uzun bandli, palagida ketma-ket joylashgan. Gultoji sariq odatda 5 tojibargli, urug'chilari 5 ta, changdonlari 2 ta, bir uyli ayrim jinsli bo'ladi. Qovun mevasining shakli turlicha bo'ladi (yumaloq, ovalsimon, cho'zinchoq). Po'sti qalin 1,5-2,0 sm, qattiq, eti juda yumshoq, sersuv, sershira, qumoq, ba'zilarники talash, ranggi oq, qizil, sarg'ish, yashilroq. Urug'i oq, sariq va och sariq ranglarda bo'ladi. Ming dona urug'i vazni naviga qarab 30-45 gr keladi.

Qovun tarkibida glyukoza, fruktoza va saxaroza moddalari hamda ko'p miqdorda, klechatka va gemitsellyullozalar, shuningdek pektinlar, hujayralarni o'zaro bir-biri bilan mustahkamlaydigan moddalar mavjud.

Qovun o'simligi tarkibida o'rtacha quruq modda 11-20%, shakar 5-18%, 0,6% oqsil, 0,8% biriktiruvchi to'qima, 0,2% yog', 0,6% kul mavjud. Qovun S (30-40 mg/%), karotin (1,5-2 mg/%), RR (1-2%), darmondorilar, kaliy, kalsiy, fosfor, oltingugurt, temir, kobalt, tuzlar va boshqa moddalarga boy.

Qovun navlari	Qand miqdori, %	Quruq modda miqdori, %
Tezpishar	6,0 – 8,0	7,0 – 12,0
O'rtapishar	8,3 – 11,8	10,1 – 14,2
Kechpishar	9,5 – 11,5	4,4 – 13,5

Quritishga mo'ljallangan qovun navlar: Ko'kkalapush, Bo'rikalla, Kalliyoz, Bosvoldi, Toshloqi, Gurovak, Ko'kcha, Ichiqizil.

Mamlakatimizda qovun mevalari etini tilim-tilim qilib oftobda quritilib qovun qoqisi tayyorlanadi. Qovun qoqisi qish faslida iste'mol qilinishidan tashqari kompotlar, turli qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun ham ishlatiladi. Qovun qoqisida 30% ga yaqin qand bo'ladi. Bo'rikalla va Ko'kkalapush navlaridagi qovun

qoqisida 37 mg% dan tortib 50 mg% gacha vitamin C va 0,05-0,12 mg% vitamin B2 bo'ladi. Qovun qoqisi yaxshi saqlanadi.

Gulobi Xorazmiy – navi yirik o'lchamli, palagi uzun. Bargi yuraksimon shaklda, o'rta hajmli. Guli germafrodit, erkak jinsli. Mevasi silindrsimon shaklda, yirik hajmli. Meva vazni 4,0-7,0 kg. Meva yuzasi asosan ajinli, rangi och yashil tusli va sariq-yashil, turli tusda boladi. To'ri qisman o'rta katakli. Po'chog'i qattiq bo'ladi.

Meva etiga keladigan bo'lsak, o'rta qalin, oq tusli, tolali, shirali, shirin bo'ladi. Quruq modda miqdori 12,5%, umumiy qand moddasi miqdori 10,4%. Urug'xonasi o'rta hajmga ega. Urug'donlari quruq, yarim yopiq, urug'xonaning yarmidan ko'p qismini egallagan. Urug'i o'rta hajmli, keng, uchli tuxumsimon shaklda, sariq tusli. Kechpishar nav hisoblanadi.

Maysalar paydo bo'lishidan yetilguniga qadar o'suv davri 120-125 kun. Un shudring va fuzarioz so'lish kabi kasalliklarga chidamli hisoblanadi. Hosildorligi 35-40 t/ga. Tashishga chidamliligi va saqlanuvchanligi yaxshi. O'z SPEKITI seleksiyasi navi. R.A.Xakimov va S.Gulimov tomonidan yaratilgan nav bo'lib asosan Buxoro va Xorazm viloyatlarida tumanlashtirilgan.

Qizil gulobi – navi o'rta o'lchamli, palagi uzun bo'ladi. Bargi yumaloq yuraksimon shaklda, o'rta hajmli. Guli germafrodit erkak jinsli. Mevasi kalta tuxumsimon shaklda, o'rta hajmli bo'ladi. Meva vazni esa 4,0-5,0 kg. Meva yuzasi silliq yoki mevaband qismi biroz tilim-tilim, rangi sariq-qizg'ish rangda bo'ladi. To'ri qisman, yirik katakli, meaning yarimiga qadar kam bog'langan. Po'chog'i qattiq. Meva eti qalin, oq tusli, yetilmaydigan, tig'iz, saqlash davomida shirin, nok ta'mli. Quruq modda miqdori 8,9-10,3%, umumiy qand moddasi miqdori 7,9-8,3% ni tashkil qiladi. Urug'xonasi kichik. Urug'donlari quruq, ochiq. Urug'i yirik hajmli, nashtarsimon shaklda, sariq tusli. Kechpishar nav hisoblanadi. Maysalar paydo bo'lganidan yetilishigacha o'suv davri 100-115 kunni tashkil qiladi. Fuzarioz so'lish kasalligiga o'rta darajada chalinadi. Hosildorligi 25-28 t/ga. Tashishga chidamliligi yaxshi. Asosan qishda saqlashga yaroqli hisoblanadi. O'z O'ITI seleksiyasi navi.

Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tumanlashtirilgan. Asosan Xorazm, Buxoro, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan.

Oq qovun – navi oʻrta oʻlchamli, palagi uzun. Bargi yuraksimon shaklda, oʻrta hajmli. Guli germafrodit, erkak jinsli. Mevasi choʻziq tuxumsimon shaklda, yirik hajmli. Meva vazniga keladigan 4,0-10,0 kg. Meva yuzasi biroz notekis, rangi och yashil. Toʻri toʻla, meva yuzasini yoppasiga qoplagan, yirik katakli, yupqa. Asosan poʻchogʻi qattiq boʻladi. Meva eti esa oʻrta qalinlikda, oq tusli, qarsillaydigan, shirali, shirin, xushboʻy. Quruq modda miqdori 11,5%, umumiy qand moddasi miqdori 7,0-11,0%. Urugʻxonasi esa oʻrta hajmli boʻladi. Urugʻdonlari urugʻxonaning yarmidan koʻp qismini egallagan. Urugʻi yirik hajmli, keng uchli tuxumsimon shaklda, sariq tusli. Oʻrtapishar nav hisoblanadi. Fuzarioz kabi soʻlish kasalligiga chalinuvchan. Hosildorligi 25-30 t/ga teng. Tashishga chidamliligi yaxshi, saqlanuvchanligi esa oʻrtacha hisoblanadi. Quritishga yaroqli. Oʻz SPEKITI seleksiyasi navi. P.N.Dudko tomonidan yaratilgan nav hisoblanadi. Asosan bu nav Toshkent, Fargʻona va Andijon viloyatlarida tarqalgan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, maʼlumki meva va sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash iqtisodiy jihatdan samarali soha boʻlib kelmoqda. Chunki meva va sabzavotlar yilning muayyan mavsumidagina yetishtiriladi. Xalqni mazkur mahsulotlarga boʻlgan talabini mavsumdan tashqari muddatlarda ham toʻlaqonli qondirib turishda esa saqlash va birlamchi ishlov berish hamda omborlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Xususan qovun oʻsimligini misol qilib oladigan boʻlsak, qovunning yetilgan mevalaridan turli xil qayta ishlangan mahsulotlar tayyorlashimiz mumkin. Masalan qovun murabbosini, djemi, povidlosini, marmeladini, shinnisini va qovun qoqi hamda boshqalarni tayyorlash mumkin. Qovunlar saqlashga yaxshi javob bermaganligi uchun dalani oʻzidan qayta ishlashni yoʻlga qoʻyish yaxshi natija berishi mumkin. Eng yaxshi usul qovunni qayta ishlab qoraqand olish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston respublikasida meva sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2018 yil 29-mart PF-538 sonli farmoni.
2. Bo‘riyev H. CH., To‘rayev R., Alimov O. Meva sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. Toshkent. Mehnat.2002-yil.
3. Rasulov A. Sabzavot va poliz mahsulotlarni saqlash – T.: O‘zbekiston 1980 yil.
4. www.agrobizness.ru
5. www.true.uz